

# **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING MAZMUNI**

## **СОДЕРЖАНИЕ ВВЕДЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРИРОДУ**

## **CONTENT INTRODUCING PRESCHOOL CHILDREN TO NATURE**

**JDFU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi –**

**Israilova Umida Anvar qizi.**

### **Annotatsiya**

Maqolada ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha tarbiya tashkilotlari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. tabiatini muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

### **Аннотация**

В статье дошкольные образовательные организации, которые считаются первым звеном системы образования, в частности, приобщающие дошкольников к природе. обсуждается важность охраны природы и экологического образования.

### **Annotation**

The article deals with preschool educational organizations, which are considered the first link in the education system, in particular, introducing preschoolers to nature. discusses the importance of nature conservation and environmental education.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya, tashkilot, maktabgacha yosh, tabiat, muhofaza qilish, ekologik, ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: дошкольное образование, организация, дошкольный возраст, природа, охрана, экология, воспитание.

Key words: preschool education, organization, preschool age, nature, protection, ecology, education.

Mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligimiz poydevori kun sayin mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. O'z tarixiy an'analaridan, yashash tarzidan kelib chiqib, ulug' ajdodlarning tajribalariga tayangan holda ko'p qonunlar yaratilmoqda. Bu qonunni amalga oshirishda ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish tabiatini muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni e'zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning o'zni beqiyos. Bola shaxsining mukammal shakllanishda tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol o'ynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlashib, shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, extiyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan biz tabiatni e'zozlashimiz, unga to'g'ri munosabatda bo'lib, tabiatni yana ham ko'rkamligiga, abadiyligiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq tabiat qoynida o'sadi, ulg'ayadi kamol topadi. Bolani go'dakligidanoq tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Talabalar "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi va texnologiyasi" fanining tashkil topishga xissa qo'shgan pedagog, psixologlarning ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan ham tanishadilar. Sharq mutafakkirlarining inson hayotida tabiatning tutgan o'zni haqidagi fikrlari va ilmiy asarlarini o'rganadilar. Talabalar tabiat burchangida, haynovot olami, yer maydonchasida o'sadigan o'simliklar dunyosi haqida bilimga ega bo'ladilar hamda ularni parvarish qilishning ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammodir. Shu sababdan ham MTTlarda ekologik ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tabiat bilan tanishtirish fanida talabalarga ekologik ta`lim-tarbiya berish usullari, "Qizil kitob" haqida qisqacha ma`lumot va "Qizil kitob"ga kiritilgan, noyob o`simlik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o`rin berilgan.

Shunindek, talabalar MTT bolalarini tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o`rganib olishlari zarur. Buni ular MTTlarda amaliyotda bo`lgan davrlarida o`rganadilar. Bolalarni tabiat qonun-qoidalarini bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to`g`ri o`sb ulg`ayishiga, tabiatda bo`ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi, bu esa bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo`lgan mehr-muhabbatni oshiradi.

Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligi esdan chiqarmasligimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xar tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o`ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., "O`qituvchi". 1995 yil.

2. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning o`ziga xosligi. T., 2000 yil.

1. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil.

2. M.M.Markovskaya. Bolalar bogchasida tabiat burchagi. T., "O`qituvchi", 1991 yil.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik his`uyg`ularini tarbiyalash orqali san`atni tushunishga o`rgatish

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation\\_for\\_view=9wx5zdeaaaaj:tyk-4ss8fvuc](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation_for_view=9wx5zdeaaaaj:tyk-4ss8fvuc)

4. Мактабгача ёшдаги болалар интеллектуал қобилиятларини интерактив методлар орқали ривожлантириш

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation\\_for\\_view=9wx5zdeaaaaj:9yksn-gcb0ic](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation_for_view=9wx5zdeaaaaj:9yksn-gcb0ic)

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarning oʻrni

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation\\_for\\_view=9wx5zdeaaaaj:u-x6o8ysg0sc](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation_for_view=9wx5zdeaaaaj:u-x6o8ysg0sc)

6. Pedagogical-psychological basis for the development of creative and intellectual abilities of children of preschool age

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation\\_for\\_view=9wx5zdeaaaaj:d1gkvwhdpl0c](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation_for_view=9wx5zdeaaaaj:d1gkvwhdpl0c)

7. Pedagogical-psychological basis for the development of creative and intellectual abilities of children of preschool age

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation\\_for\\_view=9wx5zdeaaaaj:eqolee2rzwmc](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9wx5zdeaaaaj&authuser=1&citation_for_view=9wx5zdeaaaaj:eqolee2rzwmc)